



OMMAVIY NUTQ SO‘ZLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA
TALABALAR DUCH KELADIGAN QIYINCHILIK VA ULARNI BARTARAF ETISH
YO‘LLARI

O‘rinova O‘razgul Boyqobil qizi


Tayanch doktorant, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Toshkent, O‘zbekiston

orazgulinova@gmail.com

Annotatsiya: Ommaviy nutq so‘zlash ko‘nikmasini rivojlantirishda talabalar duch keladigan qiyinchilik va ularni bartaraf etish yo‘llari xaqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ommaviy nutq so‘zlash, Psixologik holat, ko‘nikmani rivojlantirish, til kompetensiyasi, motivatsiya, lingvistik, ijtimoiy.

Ma‘lumki, talabalar omma oldida gapirishda turli qiyinchiliklarga uchraydi. Quyida eng ko‘p uchraydigan muammolarni tadqiq qiladi, tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan samarali strategiyalarni taklif etiladi. Mavjud adabiyotlar, tadqiqotlar, talabalar bilan intervyularga asoslanib, olimlar tomonidan chuqur nazariy va amaliy ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Bu borada talabalar orasida uchraydigan muammolarni aniqlash va ularni hal etish usullarini amalda qo‘llash orqali ular o‘z ommaviy nutq so‘zlash ko‘nikmalarini rivojlantira olishadi. Ommaviy nutq so‘zlash jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar borasida turli olimlar turlicha fikr bildirishgan va bu muammolarni turli guruhlariga ajratib, bartaraf etish bo‘yicha nazariy va amaliy usullariga to‘xtalib o‘tgan. Mouldida tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda talabalar duch keladigan qiyinchiliklarni o‘rganib chiqib, u ham lingvistik, ham nolingvistik jihatlariga bog‘liq ekanligini aniqlaydi. Ular quyidagilar:




Shen va Chiu esa psixologik (asabiylik, qo‘rquv ishonchsizlik), lingvistik (yetarli bo‘lmagan lug‘at boyligi, birikmalar, grammatika, struktura) va tashqi muhit (o‘rganish muhiti) muammolariga ajaratdi.

Bir qator Indoneziyalik olimlar Zainul Aminin, Kusumarasyati, Nur Fauzia, Abdur Rosyid tomonidan ommaviy nutq so‘zlashda yuzaga keladigan muammolar ikki turga bo‘linadi:

1. Ichki
2. Tashqi

Ichki qiyinchiliklar quyidagi omillarni qamrab oladi:



Psixologik holatlar o'z navbatida uyatchanlik, xavotir, o'ziga nisbatan ishonch pastligi xatolarni o'z ichiga oladi. Ularning orasida eng asosiy muammo o'ziga nisbatan ishonch pastligi va qo'rquv. Hankok ko'pchilik odamlar omma oldida gapirish qo'rquidan aziyat chekishini ta'kidlagan va bu fan tilida "glossophobia" termini bilan ataladi. Bu ijtomoiy qo'rquv turi bo'lib, natijada uyalish va tahqirlashdan qo'rqishga olib keladi. Odatda bu gapirish qo'rquv, xavotirining natijasi omma oldida gapirish holatlaridan qochishga sabab bo'ladi. (Raja). Sababi bunday odamlarda gapirish davomida o'zini yo'qotib qo'yish, oyoq, qo'l yoki tizzalarning qaltirashi va ovoz titrashi holatlari kuzatiladi. Pedagogik jihatdan bunday psixologik holatlar kuzatilgan talabalar garchi kuchli bilim, intellektual salohiyatga ega bo'lsalarda, o'quv jarayonida ayniqsa, taqdimot, guruhlar bilan ishlash, muhokama qilish va nutq so'zlash taqazo etadigan vazifalarda to'laqonli akademik qobiliyatini yuzaga chiqara olisholmaydi.

Til kompetensiyasi bu lingvistik elementlarni qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi va bu tushuncha nutq ravonligi, intonatsiya, so'z boyligi, talaffuz qilish, grammatika va boshqalarni jamlab oladi. Natijalarga ko'ra ular orasida so'z boyligi asosiy muammo bo'lgan. Ikkinchi o'rinda nutq ravonligi yana bir katta qiyinchilik sifatida qaraladi. Odatda chet tili o'rganuvchilari gapirish davomida to'g'ri, mos so'zlarni topishga qiynalishi ularning nutq ravonligiga ta'sir ko'rsatadi.


Mavzuga oid bilim bu muayyan bir muammoga aloqador bo'lgan faktlarni tushunish ko'rnikmasidir. Talabalar ma'lum bir mavzu haqida yetarli bilimga ega bo'lsagina, o'sha mavzuga doir muhokamalarda til kompetensiyalardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishadi. Ko'pchilik ma'lumotga ega bo'lmagan mavzularni namoyish qilishga va ularni birinchi o'zlari tushunib olishda qiyinchilikka duch kelishadi.

Tashqi qiyinchiliklarning turlari:

- ❖ Taqdimot, namoyish etish talablari
- ❖ O'rganish muhiti

O'quv jarayonida oldin nutq so'zlash vazifalarini qanday talablar asosida bajarganligi ularning namotish qilish holatiga ta'sir etadi. Ya'ni, vaqt talablari, reja qilish, standartlar o'zaro farq qilishi mumkin. Masalan, kunlik taqdimot vazifalarda slaydga qarab o'qib berishga o'rgangan bo'lishi mumkin. Nation and Newton ta'kidlashicha, nutq so'zlash mashg'ulotlarni turli sharoit va muhitlarda o'tkazish ularning samaradorligiga ta'sir etadi. Boshqa olimlar Minghe and Yuanga ko'ra, ijobiy o'rganish muhiti talabi ham ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaraladi.

Boshqa olim Kompas maqolasiga ko'ra, to'rtta ommaviy nutq so'zlash to'siqlari mavjud:



1.O'z potensialini yo'qotib qo'yish.Choky har bir inson potensialga ega va ichidagi qobilyatni cheklamasligi, uni yuzaga chiqarish kerakligini ta'kidlagan.O'z navbatida o'ziga nisbatan baho va shaxsiy qobilyatlarining cheklovlari haqida bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2.O'ziga nisbatan ishonch pastligi.Bu borada keying bo'limda batafsil to'xtalib o'tamiz.

3.Mavzuga mukammal tayyorlanmaslik.Aqliy tayyorgarlik bilan bir qatorda,nutq so'zlovchilar auditoriga yetkazmoqchi bo'lgan material va ma'lumotlar bilan ham tayyor bo'lishi muhimdir.Tajriba, oilaviy kelib chiqish, ijtimoiy,ta'lim va qobilyat ham so'zlovchining omma oldida taqdimot qilish ko'nikmalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.Mukammal tayyorgarlik orqali material va mavzu auditoriya tomonidan yaxshi qabul qilinadi, yetib boradi.Shuning uchun, tizimli, asoslangangan javob berish uchun tayyorgarlik muhim.

4.Auditoriya bilan muloqotga kirishuvchanlik.Birinchi navbatda, so'zlovchining xotirjamligi va malakali spiker sifatida omma oldida qulay his qilishi zarur.

Bir qator olimlar Syafryadin, Andy Makhrian va Dian Eka Chandra Wardhana o'z ona tilidan foydalanishni ham alohida muammo sifatida to'xtalib o'tishgan.Bu esa ularning ingliz tilida muvaffaqiyatli muloqot qilishiga to'sqinlik qiladi (Syafryadin & Boulahnane). Yana bir boshqa olim Ur ham bu muammoga alohida to'xtalib o'tadi.Unga ko'ra, o'z ona tilidan foydalanish o'rganish muhiti yaxshi bo'lmagan va tizimlashmagan guruhlarda o'rganuvchilar o'z ona tilida fikrlarini ifoda etishni osonroq deb hisoblashadi.Boshqa olim Braun motivatsiya ham qo'shadi.Motivatsiya biror narsaga erishish uchun turtki beradigan ichki kuch.Motivatsiyaning ikki xil turi bor: (W. S. Kharsah)

1.Ichki

2.Tashqi

Boshqa bir mutaxassis Bram Sivadjati bu haqida ilmiy asoslangan tadqiqot ma'lumotlarga tayangan holda ommaviy nutq so'zlashdagi quyidagi muammolarni quyidagicha sanab o'tadi:

1.Gapirish ko'nikmasida yaxshi grammatika strukturasidan foydalanish. Sornburi va Sleyd ta'kidlashicha, talabalarning gapirish ko'nikmasidagi muammolardan biri bu o'z ona



tilidan 2-chet tilga o'tkazish, ya'ni o'z ona tilidan ikkinchi tilga. Shuning uchun talaba miyasida avvalo grammatika qoidalari haqida o'ylab, so'ng to'g'ri grammatika va so'z boyligiga tayangan holda gap strukturasi tuzishda qiyinchilikka uchraydi. Rajoo ham bu fikrga qo'shiladi va grammatika muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

2. Mavzuni tushunishdagi qiyinchilik. O'qituvchining talabalarga yetarli bilim va ma'lumotga ega bo'lmagan mavzuni berishi bu ularning chalkashligiga olib keladi va mavzuni yetarlicha yoritib bera olishmaydi. Mavzu bilan bog'liq holda ular taqdimotni tashkillashtirishda ham qiyinchiliklarga uchraydi. Ya'ni, mavzu rejasi, kirish qismi, asosiy qism va xulosa kabi tashkiliy qismlarni noaniq bo'ladi. Talabalar o'zlari taqdim etmoqchi bo'lgan mavzuning tashkiliy strukturasi haqida bilishi lozim (Gibson).

3. Auditoriyaning qiziqishini ushlab turish. Khoury bu haqida to'xtalib o'tgan. So'zlovchi og'zaki taqdimot qilyotganda auditoriyaning qiziqishini ushlab turish asosiy qiyinchilik ekanligini aytib o'tgan.

4. Gapirish tempi. Talabalarning aynan shu muammosi bo'yicha tadqiqot olib borilgan. Rajoo xulosasiga ko'ra, ko'pchilik talabalar juda tez gapirishga moyil bo'lishadi. Buning natijasida, auditoriyaning yaxshi tushunmasligiga olib keladi.


5. Xotira muammosi. Rajoo ta'kidlashicha, xotira ham talabalar omma oldida gapirish davomida e'tiborga olish kerak bo'lgan jihatlardan biridir. Uning kuzatishlariga ko'ra, talabalar omma oldida gapiryotganda nima aytmoqchi bo'lganini to'satdan yoddan chiqarishadi.

6. Qo'rquv. So'nngi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qo'rquv talabalar duch keladigan eng katta qiyinchilikdir (Basic, AlNouh, Abdul-Kareem, & Taqi).


7. O'qituvchi kutadigan talabalar. O'qituvchi kutadigan talabalar ham og'zaki taqdimot davomida talabalarda qiyinchilik tug'dirishi bir necha tadqiqotlarda isbotlangan. Bir qator olimlar Gigante, Lewin, and Dell ham buni qo'llab quvvatlagan.

8. Vaqt bilan bog'liq muammo. Tuan and Mai tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda og'zaki taqdimotda talabalar vaqt muammosiga duch kelganini keltirib o'tishgan.

Bundan tashqari, Rajoo tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda og'zaki taqdimot davomida talabalarda uchraydigan muammolarni 4 ta kategoriyaga ajratadi:



Afshar & Asakereh mazmun-mohiyat jihatdan o'xshash bo'lgan nazariyani ilgari suradi va talabalar duch keladigan asosiy muammolarni quyidagi uchta jihatga bog'liq holda guruhlariga ajratadi:



Ta'sir etuvchi muammolar natijasida, talabalar nutq so'zlash davomida xato qilishdan qo'rqib, odatda sekin gapirishadi va nutq ravonligiga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ular sinf oldida uyalishadi va gapirish davomida tez-tez pauzalar qilishga moyil bo'lishadi. Ijtimoiy muammolarga keladigan bo'lsak, talabalar darsdan tashqari real muhitda suhbat qurish va tushunishga qiynalishadi. Dars jarayonidagi mashg'ulotlar yetarli emas va ingliz tili muhitini tashqarida yarata olmaydi. Ular do'stlar va oila davrasida o'z ona tilidan foydalanishadi va til muhiti yo'qligi uning taqdimot qilish, nutq so'zlash davomida lingvistik muammolarga duch kelishiga olib keladi.

Ommaviy nutq so'zlash qiyinchiliklarini bartaraf etish usullariga to'xtaladigan bo'lsak, Kompas tomonidan tavsiya etilgan texnikalar mavjud:

- ❖ Nafas olish mashqi
- ❖ Pauza qilish/to'xtam
- ❖ Mavzuga mukammal tayyorgarlik
- ❖ Repititsion tayyorgarlik
- ❖ Tana holati xotirjamligi
- ❖ Vokal taluffuz qilish mashqi
- ❖ Hazil-mutoyiba
- ❖ Tabassum qilish

Ommaviy nutq so'zlash qo'rquvini yengish, taqdimotning muvaffaqiyatli ta'minlash uchun quyida 5 ta amaliy usullar mavjud. Ular "Successful Public Speaking" kitobi muallifi Arina Nikita tomonidan tushuntirib o'tilgan:

1. Chuqur nafas olish. Qo'rquv, xavotir kabi emotsiyalar muskullarning qisqarishi, yurak urishi tezlashishi va qon bosimi oshishiga sabab bo'ladi va natijada nafas olish sekinlashadi. Bunday holatda chuqur nafas olish orqali his-tuyg'ularni nazorat qilish mumkin.

2. Diqqatni o'zgartirish. Texas universiteti professori Paul L. Witt aytishicha, ko'pchilik faqat fiziologik simptomlar (qorin og'rib qolishi, qaltirayotgan qo'llar, terlab namlangan panjalar)ga diqqatni qaratib, ommaviy nutq so'zlashda muvaffaqiyatsizlikka



uchrashadi. Eng muhimi, qanday ko'rinishga emas, balki auditoriya bilan bo'lishmoqchi bo'lgan ma'lumot va nutqqa e'tibor qaratish lozim.

3. Vizualizatsiya. Vizualizatsiya yoki mental repetitsiya odatada mashhur top sportchilar tomonidan tayyorgarlik davomida foydalanishadi. Lekin tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu texnika boshqa sohalar, jumladan, ta'lim, ommaviy nutq so'zlash va kommunikatsiya sohalarida ham taqdimot muvaffaqiyatli chiqishiga yordam beradi.

4. Qo'rquvga emas, faktlarga e'tibor qaratish. Auditoriya zerikib qolishi, miya ishlamay qolishi kabi qo'rquvlarning o'rniga ijobiy faktlarga diqqat qaratish zarur. Masalan, "Men bu mavzu bo'yicha kuchli mutaxassisman", "Bu nutqim uchun ko'p marta tayyorlandim".

5. Murakkablikka emas, aniqlikka asoslanish. Bir tomondan, nutq jarayonida ko'p ma'lumotlarni imkon qadar qamrab olish yaxshi, lekin amaliy tomondan, taqdimot yoki nutqni asosiy jihatlarga tayangan holda tashkillashtirish maqsadga muvofiq.

Bizning fikrimizcha, olimlar tomonidan yuqorida taqdim etilgan ma'lumotlar nazariy-amaliy statistik jihatdan mukammal emas deb baholaymiz. Chunki ommaviy nutq so'zlashda talabalarda uchraydigan muammolarni turli olimlar turlicha talqin qilgan va ularni o'z nazariy ma'lumotlari va tadqiqotlariga tayanib guruhlariga ajratgan. Shuni aytish mumkinki, bu borada barchasining umumlashgan holda nutq so'zlash muammolarining tizimlashgan klassifikatsiyasi va aniq universal strategiyalar ishlab chiqilmagan. Shunga qaramay, har bir olimning ilgari surgan nazariyasi bir-birini to'ldiradi, chunki ularning mazmun-mohiyati bir xil. Umuman olganda, shuni xulosa qilish mumkinki, talabalar eng ko'p duch keladigan muammolar sifatida lingvistik bilim, shaxsiy xususiyatlar va tashqi omillarni sanash mumkin. Ularni bartaraf etish usullar sifatida nafas olish texnikasi, mavzuga puxta tayyorgarlik, taqdimotni tashkillashtirish, lingvistik bilim, ya'ni grammatik bilimni oshirishni keltirib o'tish mumkin. Bundan tashqari, yuqoridagi muammolarini hal qilish qo'shimcha yechimi sifatida shuni tavsiya qilamizki, dars mashg'ulotlaridan tashqari ommaviy nutq so'zlash treyninglarini yo'lga qo'yishga e'tibor qaratish lozim. Chunki, treyning davomida talabalar ommaviy nutq so'zlash davomida duch kelgan muammolarni muhokama qila olishadi va amaliy yordam olishadi. Amaliyot talabalarga ommaviy nutq so'zlash tajribasini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abella R. C., Cutamora J. C. Approach to public speaking skills development in an educational organization: a grounded theory //European Journal of Education Studies. – 2019.
2. Aleksandrzak M. Problems and challenges in teaching and learning speaking at advanced level. – 2011.
3. Jaya H. P., Petrus I., Pitaloka N. L. Speaking performance and problems faced by English major students at a university in South Sumatera //Indonesian EFL Journal. – 2022. – T. 8. – №. 1. – C. 105-112.



4. Aminin Z., Kusumarasyati, Fauzia N., Rosyid A. Public Speaking: Several Essential Challenges//UHAMKA International Conference on ELT and CALL (UICELL). – T., 2022.C.1-6.
5. Jaya H. P., Petrus I., Pitaloka N. L. Speaking performance and problems faced by English major students at a university in South Sumatera //Indonesian EFL Journal. – 2022. – T. 8. – №. 1. – C. 105-112.
6. Jannah M., Usman B., Marhaban S. Students' perspectives and challenges in English speech program //English Education Journal. – 2020. – T. 11. – №. 4. – C. 529-542.
7. Nikita A. Successful Public Speaking book. – Academic transfer, 2011. – C.14-28.
8. Ramadan A. An anylysis of students' ability and difficulties in public speaking at Muhammadiyah University of Makassar //Thesis. – T., 2018.C.19-24
9. Sivadjati B. Strategies in facing difficulties in oral presentation:A case study //Thesis. – T., 2019.C.7-18.
10. Syafryadin S., Makhrian A., Wardhana D. E. C. Rhetorical structure mastery of tertiary students' speech: Challenges and possible solutions //Studies in English Language and Education. – 2023. – T. 10. – №. 1. – C. 266-279.
11. Suparmi S., Yelliza Y., Yuneva Y. PROBLEMS FACED BY THE INTERMEDIATE LEVEL STUDENTS DURING ENGLISH SPEECH //Jurnal Maneksi (Management Ekonomi Dan Akuntansi). – 2022. – T. 11. – №. 1. – C. 245-251.
12. Chand G. B. Challenges Faced by Bachelor Level Students While Speaking English //Indonesian Journal of English Language Teaching and Applied Linguistics. – 2021. – T. 6. – №. 1. – C. 45-60.